



## ZAMONAVIY TA'LIM DASTURIDA INNOVATSION G'YOYALARNING O'RNI

Berdiev Shuxrat Shukurullaevich

Oriental Universitet, Talim menejmenti fakulteti magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda ta'limga innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'limga sifatini oshirishdagi o'rni, hamda ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada ta'limga jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan va oliy ta'limga muassasalarida ta'limga jarayoniga yangicha yondashish borasida takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, pedagogik texnologiya, ta'limga sifati, IT mutaxassislari, innovatsion yondashuv.

### THE ROLE OF INNOVATIVE IDEAS IN MODERN EDUCATIONAL PROGRAM

Berdiev Shukhrat Shukurullaevich

Oriental University, Faculty of Educational Management,  
Master's student of the Faculty of Educational Management

**Abstract:** This article highlights the importance of the use of innovative pedagogical technologies in education and their role in improving the quality of education. The article also discusses the effectiveness of the use of innovative pedagogical technologies in the educational process and offers suggestions for a new approach to the educational process in higher education.

**Keywords:** innovation, pedagogical technology, quality of education, IT specialists, innovative approach.

### KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar oliy ta'limga har bir ustozdan talabalarni o'qitish va o'qitishning yangi, ya'ni ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, faol shaxsiyatlilik darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni talab etadi. Misol uchun, matematika darslarida aqliy potensialning o'sishi bizni o'rganilayotgan materialga, ularning dars davomida faoliyatga qanday yondoshishni rejalashtirishimizga yordam beradi.

Matematikaga qiziqishning paydo bo'lishi asosan uni o'qitish uslubiga, o'rganishning qanchalik mohirona bajarilishiga bog'liq. Shu munosabat bilan maktab o'quvchilarining fikrlash tarzini kuchaytiradigan yangi samarali texnologiyalarni va



o'qitish usullarini izlash ularni mustaqil ravishda bilim olishlariga katta turtki bo'ladi. O'qituvchi har bir talabaning faol ishtiyoy bilan yo'ndoshganligi haqida o'yplashi kerak va bu qiziqishning paydo bo'lishi va rivojlanishi, bilimga qiziqishi uchun tayanch manba sifatida qo'llaniladi. Boshlang'ich mакtab yoshida muayyan mavzudagi doimiy manfaatlar va moyilliklar shakllannadi, bu davrda bolalar matematikaning jozibali jihatlarini aniqlashga intilishlari kerak.

Har bir zamonaviy o'qituvchi «Ta'lrim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qanday qo'llash mumkin» degan savolga javob berishi kerak. O'qituvchining maqsadi - yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilardagi o'r ganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdir. Vaholangki, yangi ta'lrim texnologiyalari ko'proq amalda o'zlashtirilishi mumkin.

«Innovatsiya nafaqat o'zgartirishlar yoki yangiliklar emas, balki tizimning yangiliklarini ta'minlaydigan aql-zakovat elementlarini joriy qilish bilan birga yangi sifatlarni muvaffaqiyatli bajarishdir» (PS Lerner) Innovatsion texnologiyalar rivojlanish bo'yicha ta'lrim texnologiyasini, loyiha texnologiyasini, tadqiqot va rivojlantirish faoliyatini, talaba markaziga asoslangan yondashishni, AKT texnologiyalarini, monitoringni o'z ichiga olishi kerak.

Taraqqiyotning ta'lrim texnologiyalari: o'quv materiallarini taqdim etish muammolari; qisman qidirish faoliyati; mustaqil tadqiqot loyihalari kabilardir. Tanlangan mavzuning ahamiyati matematika saboqlarida samarali innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash zaruriyati bo'lib, matematik ta'limga maqsadiga tez, iqtisodiy va yuqori sifatli erishish imkonini beradi. Texnologiya samarador vosita bo'lib, undan oldingi texnologiyadan ko'ra tezroq yuqori natijaga erishishingiz mumkin. O'qituvchining vazifasi talabalarning samarali ta'lrim faoliyatini tashkil qilish, ularni o'z o'zidan muvaffaqiyatli o'r ganish uchun qo'shimcha bilimlarni olishlariga o'rgatishdir.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qudratli targ`ibot mashinasiga ega bo`lishga intilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, o'z faoliyatining targ`ibotiga AQSh hukumati yiliga 2,5 milliard dollar sarflashi bejiz bo`lmasa kerak. Fransiya ham o'z siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga 100 million frankni bekorga sarflamayotgandir? Bu ma'lumotlar targ`ibot nafaqat dinda, biznesda muhimligini, balki siyosatda ham, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko`rsatadi. Xo`sh, jahoning yetakchi davlati sanalmish AQShda fuqaro tarbiyasi qanday yo`lga qo`yilgan? Amerikaliklarga qanday g`oya va qadriyatlar singdirilmoqda? Bu savollarga javob topish uchun fuqaro tarbiyasi qanday g`oyaviy ustunlarga tayanishini aniqlash kifoya. AQSh fuqarolari Konstitutsiyani, amerika davlatchiligining asoschilari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg`uni yoshlarga singdirish haqida tinimsiz qayg`uradilar. Yoshlarda erkin yashashga ishtiyoy, mustaqillikni qadrlash tuyg`usi shakllantiriladi.

AQSh nimaning evaziga fan va texnologiyalar sohasida boshqalardan o`zib ketdi? Bu savolning ham javobi bor: Amerikada erkin fikr va ijodiy tafakkur qadrlanadi hamda o`zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag`rikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihatni boshqa bir g`oyada yashirin. U ham bo`lsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat qilishdir. Insonga bunday munosabat, so`zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beradi.

Aynan shu g`oya ta'sirida amerikaliklar orasida o`zini «o`rtamiyona odam» deb biladigan yoxud «men bir oddiy odam» deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi. Amerika fuqarolari adolatni ham o`ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o`z aqli va iste'dodi bilangina yetishadi. Shunday qilib, har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o`z kuchiga tayanishga o`rgatiladi. Lekin, eng asosiysi, har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg`otiladi. Xuddi ana shu «amerika orzusi» kishilarni yangi maqsadlar sari rag`batlantiradi, yangi g`oyalarni amalga oshirishga shavq uyg`otadi.

Demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o`z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan. Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar «AQShda bu borada muammo yo`q ekan» degan xulosa uchun asos bo`lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb urg`u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. Shu bois hozirgi kunda AQShning ziyorilari tomonidan yangi mafkura - «liberal-natsionalizm» mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o`rtaga tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jihatdan bo`linib ketgan ko`p sonli ijtimoiy guruhlarni «AQSh - millatlar hamjamiyatidir» g`oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo`lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o`rnatilmoqda. Demak, gap AQSh da astasekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

Endi misol tariqasida Sharqqa murojaat qilaylik. Sharqning eng ilg`or mamlakatlaridan biri - Yaponiyada fuqaroni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi: «xarakterni shakllantirishga yo`naltirilgan ta'lim», «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat», "fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash».

Aslida bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o`taydi. Undan qudratli mafkuraviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko`pchilik olimlarning fikricha,

aynan «axloqiy tarbiya» tizimi mamlakat iqtisodiy ravnaqining g`oyaviy asosini tashkil qiladi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma`naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo`naltirilgan.

Ikkinci jahon urushidan xaroba bo`lib chiqqan mamlakatning 30-40 yilda ishlab chiqarish hajmi bo`yicha dunyoda ikkinchi o`ringa chiqib olgani ko`pchilikning xayratini uyg`otadi. “Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtida hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo`lgan yo`lni bosib o`tganligini qanday tushuntirish mumkin?”. Mazkur savolga javoban yaponlar quyidagicha javob beradilar: Yaponiya menejmentining oltin qoidasiga ko`ra, insondan qimmatroq boylik yo`q.

Yangi texnologiyalarni joriy etish ta’lim tizimidagi tub o’zgarishlarni ilgari suradi: uning markazida o’qituvchi va talaba turadi.. Bu har bir o’quvchiga o’zi va uning qobiliyatlariga mos keladigan darajada munosib o’qish imkonini beradi. Men o’z amaliyotimda quyidagi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan yoki ularning elementlaridan foydalanaman:

- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari;
- Texnologiyalarning differentsiyasi va individualizatsiyasi;
- Interaktiv texnologiyalar (loyiha usullari, shu jumladan muammoli ta’lim va tadqiqot);
- Test texnologiyalari;
- Salomatlikni tejovchi texnologiyalar;

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o’quv jarayonida tobora ko’proq o’rin egallaydi. Ushbu texnologiyalarning asosiya afzalligi - axborotning katta qismi axborotning vizual xotirasi orqali qabul qilinishi va uning ta’siri Axborot texnologiyalari o’quv jarayonini ijodiy va talabaning faollashishiga yordam beradi.

Matematika saboqlarida AKTdan foydalanish mena talay imkoniyatlar yaratadi: multimedya imkoniyatlari tufayli o’quv jarayonini yanada yorqin va qiziqarli tashkil qilish; ta’limni vizualizatsiya qilish, muammolarini samarali hal etish; yangi o’quv materiallarni tushunarli bo’lishi uchun vizualizatsiyalashni takomillashtirish. O’qutuvchilar yangi o’quv materiallarni tushuntirayotganlarida prezentatsiyalardan foydalanilsa o’quvchilarda mavzuga katta qiziqish hosil bo’ladi, hatto passiv talabalar ham katta ishtiyoq bilan o’zlashtiradilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. «Axborot texnologiyalari va kommunikkatsiyalari soxasini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`grisida» gi PQ-5349-sonli Farmoni Toshkent sh., 2018 yil 19 fevral.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so’zi" gazetasi. 2017 yil 23 dekabr
3. Морозов. К.А. Информационно-коммуникативные технологии и их применение в педагогической деятельности // Личность, семья общество: вопросы педагогики и психологии: сб.ст. по матер XXX междунар.науч.-практ. конф. –Новосибирск: СибАК, 2013.